



IJODIYLAR BOSHLANDI

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bakalavr ta'lim yo'nalishiga kirish imtihonlarining ikkinchi bosqichida test topshiruvchilar uchun ijodiy imtihonlar davom etmoqda.



Bunda Xalq ijodiyoti fakultetining “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” ta’lim yo’nalishida og’zaki hamda “Ijtimoiy-madaniy faoliyat”da yozma shaklda abituriyentlarning bilim va salohiyatlari sinovdan o’tkazilmoqda.



Ijodiy imtihon jarayonida, professor-o'qituvchilar tomonidan abituriyentning og'zaki hamda yozmadagi bilimi, badiiy hamda sohaga doir adabiyotlarni o'qiganligi va boshqa ko'plab jihatlar inobatga olinib ballar qo'yilmoqda.

Eslatib o'tamiz, ushbu bosqichda imtihonlar 25 iyul kuni yakunlanadi hamda 26-27 iyul kunlari imtihon natijalari e'lon qilinadi.



(jarayonlardan institutning rasmiy veb-sayti dsmi.uz hamda rasmiy telegram kanali https://t.me/dsmi_uz da boxabar bo'lishingiz mumkin)

O'zDSMI Axborot xizmati